

**MAKTAB VOLEYBOL SEKSIYALARINING DOLZARBLIGI,
MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI**

Sulaymonov Jaxongir Solijonovich

E-mail: sulaymonovjaxongir8182@gmail.com

*Mustaqil Izlanuvchi, O'zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya Va Sport Universiteti
Farg'onan Filiali "Sport O'yinlari Nazariyasi va Uslubiyati Kafedrasi"*

O'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktab voleybol seksiyasining tarixi va rivojlanishi haqida so'z boradi. Ta'lim muassasalarida ushbu sport turining ko'rinishidan tortib, zamonaviy yutuqlarigacha bo'lgan taraqqiyotga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktab voleybolini rivojlantirishning asosiy bosqichlari, jumladan, birinchi musobaqalarni tashkil etish, murabbiylar va voleybolchilar uchun o'quv dasturlarini joriy etish, shuningdek, yoshlar o'rtasida voleybolni ommalashtirishda maktab seksiyalarining ta'siri tasvirlangan.

Абстрактный: В статье говорится об истории и развитии школьной секции волейбола. В учебных заведениях особое внимание уделяется развитию этого вида спорта от его появления до современных достижений. Описаны основные этапы развития школьного волейбола, включая организацию первых соревнований, внедрение программ подготовки тренеров и волейболистов, а также влияние школьных секций на популяризацию волейбола среди молодежи.

Abstract: The article talks about the history and development of the school volleyball section. In educational institutions, special attention is paid to the development of this sport from its appearance to its modern achievements. The main stages of the development of school volleyball, including the organization of the first competitions, the introduction of training programs for coaches and volleyball players, as well as the influence of school sections on the popularization of volleyball among young people, are described.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Kalit so‘zlar: Maktab, voleybol, tarix, rivojlanishi, jismoniy tarbiya, evropa, musht to‘pi, minto-net, qoidalar, xalqaro, federasiya, seksiya, viloyat, respublika.

Ключевые слова: Школа, волейбол, история, развитие, физическое воспитание, Европа, кулачный мяч, минто-нет, правила, международный, федерация, секция, область, республика.

Key words: School, volleyball, history, development, physical education, Europe, fist ball, minto-net, rules, international, federation, section, region, republic.

KIRISH

Sobiq ittifoq davridan toki mustaqillikka qadar respublikamizda nafaqat voleybol sport seksiyasi balki barcha sport seksiyalari “Sport to‘garaklari” deb yuritilar edi. Vaqt o‘tishi bilan bu atama sport seksiyasi nomi bilan almashina boshladi.

Dolzarbligi. Sobiq ittifoq davridan toki mustaqillikka qadar respublikamizda nafaqat voleybol sport seksiyasi balki barcha sport seksiyalari “Sport to‘garaklari” deb yuritilar edi. Vaqt o‘tishi bilan bu atama sport seksiyasi nomi bilan almashina boshladi. Ammo yuqorida aytilganidek nomi o‘zgardi xolos, amalda bu hali hanuz sport to‘garaklari yuritilib, uning faoliyatiga panja ortidan qarab kelinmoqda. Jismoniy tarbiya va sportda voleybol sport turi alohida va muhim o'rinn tutadi. O'yinni mamlakatimizning barcha hududlarida tarqalishi uning qoidalarining soddaligi, tushunarligi, sport anjomlarining arzonligi bilan boshqa sport turidan ajralib turadi. O'yin salomatlikni yaxshilashning samarali vositasidir va jismoniy rivojlanish. Voleyboldagi barcha harakatlar yugurish, sakrash, uloqtirishga asoslangan tabiiy xarakterga eg b a sport turi hisoblanadi. Zamонавиy biotibbiyot va sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tizimli voleybol darslari tayanch-harakat tizimi va ichki organlar va tizimlarda ijobiy morfologik va funktsional o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Chuqur va periferik ko'rish yaxshilanadi; nerv-mushak apparatining mushaklarni tez tortish va bo'shashtirish qobiliyati oshadi, metabolizmni, qon aylanish va nafas olish organlarining ishini yaxshilaydi [1].

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Sport to‘garaklari nima? – sport to‘garaklari umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida 1-sinfdan toki 11-sinfga qadar tashkillangan, darsdan tashqari vaqt oralig‘ida, o‘quvchilarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazilishi uchun tashkillangan va jismoniy tarbiya va sportga yo‘naltirilgan mashg‘ulotdir. Uning asosiy maqsadi, maktab o‘quvchilarini yuqorida aytilgandek bo‘sh vaqtalarini mazmunli o‘tkazish hamda jismoniy rivojlanishi, sog‘lom bo‘lishi, ba’zida jinoyatchilini oldini olishi kabi so‘zlarni uchratishimiz mumkin.

Sport seksiyalari nima? – sport seksiyalari 5 ta ebosqichni o‘z ichiga olgan, bir aniq sport turiga ixtisoslashgan, sog‘lomlashtirish hamda aniq bir maqsadni o‘z ichiga olgan mashg‘ulot turi. Sport seksiyaning vaqt me’yorlari, shug‘ullanuvchilar sonining nisbatan aniqligi bilan sport to‘garaklaridan ajralib turadi. Bundan bir necha yillar avval professor A.Abdullayev tomonidan yozilgan ilmiy dissertatsiyasi (А.Абдуллаев. “Педагогические аспекты совершенствования внеклассной работы по физическому воспитанию в сельских школах» дис-я на соиск. уч. степ. кан.пед. наук”. 13.00.001 - теория и ист. пед. наук. Ташкент – 1984.) hamda sinfdan tashqari ishlarni tashkillash bo‘yicha (A.Abdullaev, R.Rasulov, A.Xasanov. O‘quv qo‘llanma. “Umumiyl o‘rta va kasb-hunar ta’limi tizimlarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar” Toshkent 2009. 210 b.) ilmiy tadqiqot ishlari samarali yakunlangan edi. Ammo barcha qilingan ishlar faqatgina qog‘ozdagina qolib ketdi, ommalashmadi, turli sabablarga ko‘ra maktablarda tashkillanmay qolib ketdi.

Muammolari. 2024-yilning 30-iyul kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida sog‘liqni saqlash vaziri vazifasini bajaruvchi Asilbek Xudayarov “Bolalar va o‘smirlar orasida kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash borasidagi ishlar” yuzasidan ma’ruza qildi. O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari va bog‘cha o‘quvchilarining to‘rtidan bir qismidan ko‘prog‘ida tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra turli kasalliklar aniqlangan. O‘quvchilarining deyarli 28 foizida turli xil kasalliklar, jumladan, anemiya, asab tizimi kasalliklari va yurak nuqsonlari aniqlangan. 1-iyul holatiga ko‘ra, 5,9 million nafar maktab o‘quvchisidan 5,7 mln nafari (96,5 foiz) tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan, ulardan 1,3

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mln nafarida (27,9 foiz) turli kasalliklar aniqlangan. Vazir vazifasini bajaruvchining ta'kidlashicha, 81 foizi davolanishdan keyin tuzalib ketgan. Sog'liqni saqlash vazirligi rahbari eng ko'p uchraydigan kasallikkarni sanab o'tdi, ularga, xususan, 28,4 foiz holatda qon va qon yaratish a'zolari kasallikkari, masalan, anemiya, qonning tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlar kiradi. Keyingi o'rinnarda nafas olish, ovqat hazm qilish (6,9 foiz) va endokrin tizimi kasallikkari (5,4 foiz) turadi. Unga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda 12,93 mln nafar 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar (jami aholining 35 foizi) istiqomat qilmoqda dedi o'z ma'ruzasida [2].

O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, maktab o'quvchilarining salomatlik ko'rsatkichlari hozirda umidsizlikka uchramoqda: yurtimizda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning umumiylashtirilishi so'nggi besh yil ichida 12 % ga oshdi; 15-18 yoshdagi o'g'il va qizlar - 17% ga. Tizimli ta'limga tayyor bo'lmagan 6-7 yoshdagi bolalar soni 22 foizdan oshadi; Maktab yoshidagi bolalarning 23 foizi sog'lig'i yomon. Ushbu ko'rsatkichlar bilan 11-sinf gacha bo'lgan maktab o'quvchilarining salomatlik dinamikasi yomonlashmoqda. Umumta'lim muassasalari bitiruvchilarining atigi 50 foizi sog'gom deb tasniflanishi mumkin. Bu maktabda jismoniy tarbiya darslarining achinarli ahvolga kelib qolganligidan dalolat beradi. Maktab o'quvchilarining sog'lig'ini yomonlashtiradigan muhim omil - bu past darajadagi jismoniy faoliyat sanaladi. Boshlang'ich sinflarda jismoniy faoliyating etishmasligi allaqachon 35-40% ni, o'rta maktab o'quvchilarida esa 75-85% ni tashkil qiladi. Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy harakatlarning etishmasligini ozgina qoplaydi 10-18 %, bu salomatlik holatidagi nuqsonlarning oldini olish uchun etarli emas [3].

Barchamizga ma'lumki, 15,16,17 yosh maktab o'quvchilari eng ko'p harakatchan davri hisoblanadi. Tadqiqotimiz davomida Farg'ona viloyati misolida 5 ta tuman 21 ta umumta'lim maktablarni o'rganganimizda yana bir muammoga amin bo'ldikki, deyarli barcha maktablarning 10-11-sinflarida fanlarning optimallashtirishi tufayli qisqargani hamda jismoniy tarbiya fani mashg'ulotlari fan sifatida o'tilmasligiga guvoh bo'ldik.

Respublikamizdagи aksariyat umumiylashtirilishi o'rta ta'lim maktablarida,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hukumatimiz tomonidan sport jihojlari bilan ta'minlash darajasi me'yorlashtirilgan bo'lsada, hali ham qoloq hamda juda achinarli ahvolda qolmoqda. Bunga sabab qilib sport murabbiylarining yetishmasligi, sport seksiyalari uchun alohida dars soatlari sifatida oylik ish haqi to'lanmasligi va o'quv yuklama uchun qo'shib berilgan bo'lib, bor yo'g'i haftasiga 1 marta 45-60 daqiqadan oddiy fan to'garagi misolida o'tish kerak deb qaralmoqda deb bilamiz. Xattoki maktab rahbariyati tomonidan yetarlicha shart-sharoitlar va e'tibor berilmayotgani bor gap, vaholangki tegishli vazirliklar, idoralar tomonidan yetarlicha imkoniyatlar yaratib berishga va amaliy yordam berishga bel boylab tursada ba'zi joylarda muassasa rahbarlari jismoniy tarbiya va sportga ikkinchi darajali fan sifatida qarashda davom etmoqdalar. Hisobotlariagi barcha axborotlari bo'rttirma va yolg'ondan boshqa narsa emas. 10 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarining kamida 6-7 tasida shunday holatlar kuzatiladi. Maktab voleybol yoki boshqa sport turlaridan o'tkaziladigan musobaqalarni tomoshabini bo'lsangiz, o'yin ishtirokchilaridan ko'nglingiz to'lmaydi, borlari agar maxsus sport maktablariga qo'shimcha shug'ullanishga bormagan bo'lsa. Birorta umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tabiya fani o'qituvchilari zamonaviy anjomlardan, video tahlillar (M: yozib olingen o'yinlarni proyektorlar orqali) dan va zamonaviy boshqa anjomlardan foydalanmaganlar, xattoki ularning qanday ishlatilishini ham bilmasligi ko'ngilni xira qiladi. Ammo yuqoridagilarni bahona qilib maktab sportini shu darajaga olib kelish ham yaramaydi. Hech bo'limganda har bir o'qituvchi bitta sport turidan bitta fan to'garagi va sport seksiyasi ishlarida rahbarlik qilishi o'qituvchining o'quv yuklamasida ham belgilangani haqida ko'pchilik uchun ahamiyatli emasdek go'yoki. Ammo hozirgi kunda dunyo o'zgarmoqda shunga ko'ra bizning yurtimiz, qolaversa bizning yoshlарimiz ham o'zgargan. Shu boisdan endi maktabdagи sport to'garaklari jadal yangiliklar bilan rivojlanib borayotgan yurtimiz hamda farzandlarimiz uchun eskirgan buyumdek bo'lib qolmoqda.

Yechimlari: Dissertatsiyada tavsiya qilinayotgan "Sport seksiya mashg'ulotlari" esa bu hozirgi kun uchun dolzarbligi, hammani birdek qiziqishi bilan alohida o'rin tutadi. Hozirgi kunda sport maktablari orqali olib borilayotgan,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

samara berayotgan tizim ishlab turar ekan, maktablardagi to‘garaklardan voz kechishni o‘ylab ko‘rish hamda va maktablar uchun yangi zamonaviy tizimlashtirilgan yangi, zamonaviy ko‘rinishdagi seksiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ayni haqiqat deb bilamiz. Sport to‘garaklar bor yo‘g‘i haftada bir soatlik mashg‘ulot bo‘lib, u ham ko‘ngildagidek emasligi achinarli holatdir.

Quvonarli jixatlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 19.07.2024. PQ-274 – sonli “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [4]gi qarori qabul qilindi.

Qarorda voleybol sport turini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish hamda eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli sportchilar, jumladan, sportchi ayollarni aniqlash, seleksiya qilish hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning barcha bosqichlarini raqamlashtirish, zarur sharoitlarga ega professional va oliy ta’lim tashkilotlarida voleybol sport turlari bo‘yicha to‘garaklarni tashkil etish, voleybol sport turlari bo‘yicha professional trenerlar va hakamlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish, zamonaviy sport majmularini barpo etish, mayjud moddiy-teknika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan taminlash ushbu qarorning asosiy o‘zagini tashkil etmoqda.

2024-yil 30 – sentyabrdagi Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan davlat mukofotlarini topshirish hamda soha vakillari bilan ta’limda amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan muloqoti jarayonida ta’kidlab o‘tkanidek, maktablarda 33 000 nafar jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy va jismoniy mahorati etarli emasligini tanqid qildi. “Bizning qanday mard va jasur championlarimiz bor? Ularning har biri yoshlarimiz uchun vatanparvarlik bo‘yicha chinakam maktabi bo‘lib hizmat qilishi kerak. Shu borada, milliy sportimiz fidoyilari, xususan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga ko‘p narsa bog‘liq. Afsuski, maktablardagi 33 ming nafar jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy va jismoniy mahorati etarli emas, Ikramov endi bu o‘qituvchilar tarkibini tubdan yangilab, faol va champion sportchilar orasidan tanlov asosida to‘ldiradi. Ularning kasbiy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mahorati va malakasini Jismoniy tarbiya institutida oshirib borishni yo‘lga qo‘yadi” dedi hurmatli prezidentimiz.

Bundan ko‘rinib turibdiki haqiqatdan ham mакtablarimizda sport ta’limini rivojlantirish ishlari judayam pastligi ayni haqiqatdir.

Maktablarda sport turlari bilan muntazam va jiddiy shug‘ullanish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun sport seksiyalari tashkil etilishi mumkin. Sport seksiyalariga tanlov asosida qabul qilinadi, tanlovda ota-onaning roziligi, sinf rahbari va shifokorning ruxsati talab qilinadi.

Voleybol seksiyalari uchun tanlovda qatnashish ikki xil toifaga bo‘lib, 1) 8-9, 10-11, 12-13 yoshli o‘g‘il va qiz bolalar, 2) 14-15, 16-17 yoshdagи o‘g‘il bolalar va qizlar uchun alohida tashkillanadi.

Bolalar guruhlari uchun mashg‘ulotlarning davomiyligi haftasiga kamida ikki marta 60 daqiqa, yoshlar guruhlari uchun haftada kamida uch marta 90 daqiqa.

O‘smirlar va yoshlar guruhlarida o‘quvchilar o‘yin texnikasi va taktika asoslarini puxta egallaydilar. Bo‘limlardagi mashg‘ulotlar voleybol mashg‘ulotlaridan o‘quvchilar tanasiga yukning ortishi va o‘rganilayotgan materialning ko‘payishi bilan farq qiladi [5].

Sport seksiyasi mashg‘ulotlarining maqsadi ham sport to‘garagi singari bir qancha talablarni o‘z ichiga oladi. Masalan: Maktab voleybol seksiyasini rivojlanishining dastlabki bosqichlarida maktab o‘quvchilari o‘rtasida ushbu sport turini tashkil etish va rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanilgan. Maktab o‘quvchilarini yuqorida aytilgandek bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, jismoniy rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jinoyatchilikni oldini olishdan tashqari endi aniq maqsadlari bor, ya’ni bu seksiya orqali sportchilarni tayyorlash imkoniyati, viloyat, respublika termalariga sportchi etkazib berishdek mas’uliyatli vazifalarni bajara olishi ko‘zda tutilgan.

XULOSA

Maqola voleybolning paydo bo‘lishi, maktab voleybol seksiyalarining ta’lim muassasalarida paydo bo‘lgan paytdan toki hozirgi kungacha bo‘lgan tarixi va rivojlanishini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada maktab voleybolini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rivojlanishning asosiy bosqichlari, jumladan, ilk musobaqalarni tashkil etish, murabbiylar va voleybolchilarni tayyorlash dasturlarini joriy etish, shuningdek, yoshlar o‘rtasida voleybolni ommalashtirishda maktab seksiyalarining roli bayon etilgan. Maktab voleybolining o‘quvchilarning jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siriga alohida e’tibor qaratilgan.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yhati

1. Xasanov AT, Solijonovich SJ. Kasb-hunar mактабида voleybol sektsiyasi ishini tashkillash samaradorligi. ijodkor o‘qituvchi. 2023 may 8;3(29):215-7.
2. 30 iyul 2024, gazeta. 2024-yilning 30-iyul kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida sog‘liqni saqlash vaziri vazifasini bajaruvchi Asilbek Xudayarovning ma’ruzasi.
3. Mirzatillayev I.I.Yengil atletika to‘garaklarida zaxira sportchilarni tayyorlash samaradorligi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiya. Chirchiq – 2024.136 sahifa.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 19.07.2024. PQ-274 – sonli “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
5. Волейбол: Учебник для высших учебных заведений физической культуры. Под редакцией Беляева А. В., Савина М.В., — М.: «Физкультура, образование, наука», 2000. — 368 с., ил.